

“CLIL” METODI ORQALI O‘QUVCHILARDA AKADEMIK INGLIZ TILI
KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Asqarova Shaxloxon Baxromjon qizi
PDP – school MCHJ / Ingliz tili o‘qituvchisi
asqarovashaxloshka@gmail.com
+998(99)484-08-94

Annotatsiya. Mazkur maqolada “CLIL” (Language Integrated Learning – til bilan integratsiyalashgan o‘qitish) metodining mohiyati, uning afzalliklari hamda yuqori sinf, ya’ni 10-11-sinf o‘quvchilarida akademik ingliz tili ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, bu metod asosida ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish bo‘yicha aniq tavsiyalar va strategiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu metod kontent (fan mazmuni) va tilni birgalikda o‘rgatishga asoslangan bo‘lib, ingliz tilining tabiiy, muloqotga asoslangan shaklda o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Shuningdek, bugungi kunda “CLIL” metodi Yevropa mamlakatlarida keng qo‘llanilmoqda va so‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimiga ham tatbiq qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: “CLIL” metodi, akademik ingliz tili, integratsiyalashgan ta’lim, maktab ta’limi, ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Аннотация. В данной статье рассматривается суть метода «CLIL» (Language Integrated Learning), его преимущества и роль в формировании навыков академического английского языка у учащихся 10–11-х классов. Разработаны конкретные рекомендации и стратегии для эффективной организации образовательного процесса на основе данного метода. Также сегодня метод «CLIL» широко применяется в европейских странах и в последние годы внедрен в систему образования Узбекистана.

Ключевые слова: метод «CLIL», академический английский, интегрированное обучение, школьное образование, развитие навыков.

Abstract. This article discusses the essence of the “CLIL” (Language Integrated Learning) method, its advantages and role in the formation of academic English language skills in 10-11th grade students. Also, specific recommendations and strategies for the effective organization of the educational process based on this method have been developed. Also, today the “CLIL” method is widely used in European countries and in recent years has been introduced into the education system of Uzbekistan.

Keywords: “CLIL” method, academic English, integrated education, school education, skills development.

Kirish. Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko‘nikmasi professional ta’limning ajralmas qismlaridan biri bo‘lib bormoqda. Turli sohalaridagi mutaxassislarda chet elliklar bilan hamkorlik qilish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lganligi sababli, ularda til o‘rganishga bo‘lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta’limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bugungi kunda turli darajadagi til bilimiga ega kishilar uchun o‘quv materiallarining yirik to‘plamlari mavjud. Ushbu maqsadga amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishish, o‘qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog‘liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o‘qituvchi muayyan


THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-9

ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. O'qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o'quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar *boshlang'ich, o'rta, yuqori* bosqichda o'qitish asosida guruhlariga bo'linadi. Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomondan maxsus dastur ishlab chiqiladi. Bolalar umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi sinfidan boshlab chet tillarini o'rganishga harakat qilishadi. O'lchanadigan va samarali natijalarga olib keladigan to'g'ri o'qitish metodikasini topish anchayin mushkul. Dunyoning ayrim davlatlarida ta'limning barcha darajalari uchun eng keng tarqalgan yondashuv an'anaviy usul hisoblanadi. An'anaviy usulda sinflarda o'qituvchi o'quvchilar bilan faol ishlaydi, turli xil faoliyat turlarini tanlaydi: yozish, o'qish, takrorlash. Ammo kamchilik sifatida shuni aytish lozimki, o'quvchilar soni ko'p bo'lganligi sababli o'rganilgan materialning muvaffaqiyat darajasini tekshirish har doim ham to'g'ri emas. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan intilishi kengaydi va til o'rganish uchun ko'plab sharoitlar yaratilmoqda, ingliz tilini o'rganish esa global tendensiyaga aylangan. Xususan, akademik ingliz tili bo'yicha bilimga ega bo'lish yuqori ta'lim olish, ilmiy izlanish olib borish va xalqaro maydonda muvaffaqiyat qozonishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2030-yilgacha ingliz tilini o'rganish strategiyasi doirasida maktab o'quvchilarining akademik ingliz tili bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, "CLIL" (Content and Language Integrated Learning – CCLIL) metodi ingliz tilini boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'rgatishga xizmat qiladi va o'quvchilarning nafaqat umumiy, balki akademik til ko'nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Mohiyati va nazariy asoslari. CLIL – bu kontent (fan mazmuni) va tilni birgalikda o'rgatishga asoslangan metod bo'lib, ingliz tilining tabiiy, muloqotga asoslangan shaklda o'zlashtirilishini ta'minlaydi [1]. Ushbu metod Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanilmoqda va so'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimiga ham tatbiq etilmoqda. CLIL quyidagi to'rt asosiy C tamoyiliga asoslanadi:

- *Content (mazmun)* – o'quv fanining o'ziga xos bilimlari;
- *Communication (muloqot)* – o'rganilayotgan fan orqali ingliz tilida muloqot qilish;
- *Cognition (fikrlash)* – yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni rivojlantirish;
- *Culture (madaniyat)* – til va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish [2] (*1-rasm*).



1-rasm. CCLIL Metodining 4C modeli

Akademik ingliz tili ko'nikmalari va ularning ahamiyati. Akademik ingliz tili – bu ilmiy, akademik muhitda ishlatiladigan til shaklidir. U quyidagi asosiy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

- Akademik lug'at boyligi (AWL – Academic Word List asosida);
- Insho va maqola yozish ko'nikmalari;
- Murakkab matnlarni tahCLIL qilish;
- Fikr bildirish, asoslash va bahs yuritish;
- Ilmiy prezentatsiyalar qilish. 10-11-sinflarda ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish, ularning keyingi bosqichlarda (kollej, oliy ta'lim) muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zamin yaratadi (1-jadval).

1-jadval

CCLIL asosida 10-11-sinf uchun dars modeli

T/r	Dars bosqichi	Faoliyatlar	Maqsad
1.	Kirish	So'z boyligini faollashtirish	Mavzuga tayyorlash
2.	Asosiy faoliyat	Fan matnini o'qish + savollarga javob	Akademik tilni tushunish
3.	TahCLIL	Matn asosida munozara	Nutq ko'nikmasini rivojlantirish
4.	Yozma faoliyat	Mavzuga oid qisqa yozma topshiriq	Akademik yozuvni rivojlantirish
5.	Yakun	Refleksiya va fikr almashish	O'zlashtirishni mustahkamlash

Afzalliklari. A) Tabiiy muhitda til o'rganish – o'quvchilar ingliz tilini hayotiy kontekstda qo'llaydi;

B) Motivatsiyaning ortishi – fanlarni ingliz tilida o'rganish qiziqarliroq bo'ladi;

D) Kognitiv rivojlanish – murakkab fikrlash, tahCLIL qilish va muhokama qilish ko'nikmalari shakllanadi;

E) Ayni vaqtda ikki maqsadga erishish – ingliz tilini va boshqa fan bilimlarini egallash.

Rivojlantirish usullari. Fanlararo loyiha ishlari: o'quvchilar biologiya, geografiya, tarix yoki informatika fanlarida kichik ilmiy loyihalar tayyorlab, ingliz tilida taqdim etadilar. Bu esa ularning akademik yozuv, prezentatsiya va tahCLIL ko'nikmalarini rivojlantiradi; ingliz tilida laboratoriya ishlarini tashkil qilish: masalan, fizika darsida tajriba bayonnomasini ingliz tilida yozish, jarayonni inglizcha tushuntirish o'rgatiladi; akademik yozuv mashqlari: o'quvchilar ingliz tilida qisqa esselar, sharhlar, hisobotlar yozadi. AWL lug'atidagi so'zlarni faol qo'llash o'rgatiladi; bahs-munozaralar (Debates): Ingliz tilida akademik asosli munozaralar tashkil etish orqali fikr bildirish va daCLIL keltirish ko'nikmalari shakllanadi; korpuslardan foydalanish: ingliz tilidagi akademik korpuslardan (masalan, BAWE – British Academic Written English) [4] namunalar tahCLIL qilinadi (2-jadval).

2-jadval

Akademik ingliz tili ko'nikmalarining CCLIL orqali rivojlanishi

Ko'nikma turi	An'anaviy yondashuvda	CCLIL metodida yondashuv
Lug'at boyligi	So'zlar yodlanadi	Fan matnlari orqali tabiiy o'zlashtirish
Grammatik ko'nikma	Qoida asosida	Kontekst asosida integratsiyalashgan
O'qish	Faqat til matnlari	Biologiya, tarix matnlari orqali
Yozish	Insho, xat	Fan asosidagi yozma ishlanmalar

Ko'nikma turi	An'anaviy yondashuvda	CCLIL metodida yondashuv
Tinglab tushunish	Dialoglar, suhbatlar	Ma'ruzalar, fan video darslari
Nutq	Oddiy dialoglar	Fan haqida izohli nutq, taqdimotlar

O'quvchilar yutuqlarini baholash usullari. CLIL metodida baholash ham integratsiyalashgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Formatif baholash: jarayon davomida doimiy tahCLIL va fikr bildirish;
- Sumativ baholash: loyiha ishi, esse yoki prezentatsiya orqali yakuniy baholash;
- O'z-o'zini baholash: o'quvchi o'z yutuq va kamchiliklarini mustaqil tahCLIL qiladi;
- E-portfoliolar: o'quvchining barcha ishlarini yig'ib boradigan raqamli portfel.

Amaliy tajribadan misollar (case study). Toshkent shahridagi 211-maktabda o'tkazilgan tajriba loyihasi natijalariga ko'ra, 10-sinf o'quvchilari "CLIL" metodida 3 oy davomida ingliz tilida geografiya loyihalari ustida ishladi. Yakunda:

- O'quvchilarning 78% akademik so'z boyligini kengaytirdi;
- 63% o'quvchi ingliz tilida mustaqil fikr bildirishga tayyor bo'ldi;
- 71% o'quvchi ingliz tilida esse yozishdagi xatolar sonini kamaytirdi [5].

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktablarda xorijiy til o'qitish metodikasi fani o'qitish jarayonida ta'limning an'anaviy va interfaol o'qitish usullardan ishlatiladi. Amaliy mashg'ulotlar og'zaki va yozma tarzda tashkil etilishi ko'zda tutiladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'qitish mobaynida ilg'or pedagogik texnologiyalardan, shuningdek, ko'rgazmali slaydlarni kompyuter yordamida namoyish etish, elektron materiallarni proyektor yordamida tasvirga chiqarish vositalaridan foydalaniladi. Fanning amaliy mashg'ulotlarida ta'limning innovatsion, interfaol metodlari qo'llash nazarda tutiladi. Xususan, "CLIL" metodini 10-11-sinflarda qo'llash akademik ingliz tilini samarali o'rgatish imkonini beradi. Metod o'quvchilarning bilim darajasi va til ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi, shuningdek, ularni zamonaviy ta'lim va ilmiy faoliyatga tayyorlaydi. Tavsiyalar sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

1. O'qituvchilar CLIL bo'yicha malaka oshirish kurslarida qatnashishi lozim;
2. Maktablarda fanlararo darslar soni oshirilishi kerak;
3. Akademik ingliz tiliga oid maxsus darslik va materiallar ishlab chiqilishi zarur;
4. Baholashda akademik ko'nikmalar inobatga olinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bentley K. (2010). *The TKT Course: CCLIL Module*. (CCLIL o'qituvchilari uchun qo'llanma) – Cambridge, 2010.
2. Ball P., Kelly K., & Clegg J. (2015). *Putting CCLIL into Practice*. (Akademik til ko'nikmalarini CCLIL orqali rivojlantirishga amaliy yondashuv) – Oxford, 2015.
3. Coyle D., Hood P., & Marsh D. *CCLIL: Content and Language Integrated Learning*. (CCLIL metodikasining asosiy nazariy asoslari) – Cambridge, 2010.
4. Dalton-Puffer C. *Discourse in Content and Language Integrated Learning (CCLIL) Classrooms*. (Akademik til ko'nikmalarini CCLIL orqali rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar) – Netherlands, 2007.
5. Toshkentdagi xalqaro maktablar (TIS, WIS) CCLIL amaliyotlari haqida taqdimot va tajriba hisobotlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Ingliz tili fani Davlat ta'lim standarti (DTM), 10-11-sinflar uchun*. Akademik ko'nikmalarga oid kompetensiyalar.
7. Qo'chqarova G. *CCLIL metodining O'zbekiston maktablarida tatbiqi: muammo va yechimlar*. // "Ta'lim va innovatsiyalar" ilmiy jurnali, 2020.